



KOREYS TILIDA 아/어 보다 (-B,-IB KO‘RMOQ KO‘MAKCHIFE’LINING MA’NO KO‘LAMI

Nosirova Nigora Olimjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Tel: +998(93)398-95-07

nigoranosirova0702@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy koreys tilshunosligida “아/어 보다” (-b, -ib ko‘rmoq) ko‘makchi fe‘li koreys tili ta‘limi uchun asosiy grammatik vosita bo‘lib, koreys tili darsliklarida va alohida grammatikaga asoslangan kitoblarda salmoqli ahamiyatga ega bo‘lgan grammatika shakllaridan biri sanaladi. Ushbu “아/어 보다” ko‘makchi fe‘li fe‘l hamda sifat so‘z turkumiga qo‘shilib, so‘zlovchining gapga bo‘lgan tushunchasi va munosabatini, shuningdek, so‘zlovchining suhbat ishtirokchisi bo‘lgan tinglovchiga semantik munosabatini ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: Ko‘makchi fe‘l, nutq akti, semantik vazifa, semantik imkoniyat, pragmatik foydalanish, semantic munosabat.

KIRISH.

Zamonaviy koreys tilshunosligida “아/어 보다” (-b, -ib ko‘rmoq) ko‘makchi fe‘li koreys tili ta‘limi uchun asosiy grammatik element bo‘lib, koreys tili grammatik kitoblarida yoki koreys tili darsliklarida faol ahamiyatga ega bo‘lgan grammatika shakllaridan biri sanaladi. Ushbu ko‘makchi fe‘l “아/어 보다” fe‘l hamda sifat so‘z turkumiga qo‘shilib, so‘zlovchining gapga bo‘lgan tushunchasi va munosabatini, shuningdek, so‘zlovchining suhbat ishtirokchisi bo‘lgan tinglovchiga munosabatini ifodalaydi. Qolaversa, “아/어 보다” ko‘makchi fe‘lini o‘rgatish va o‘rganish biroz qiyinchilik tug‘diradi, chunki u keng qo‘llanish doirasiga ega grammatik shakl bo‘lib, nafaqat shaxsiy (individual) nutqda, balki ommaviy (jamoat) nutqida ham keng qo‘llaniladi. Biroq, aksariyat koreys tili darsliklarida boshlang‘ich darajadagi guruhlar uchun “아/어 보다” ko‘makchi fe‘lidan ma‘lum miqdorda cheklangan darajada foydalanishga qaratilgan. Ushbu holatda “아/어 보다” Grammatik shakl bo‘lib qolmasdan, gap birligining ma‘no vazifasining emas, balki nutq birligida dialog akti vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun ham koreys nutqi hamjamiyati bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun “아/어 보다” grammatik shaklidan umumiy foydalanishni o‘rgatish va o‘rganish kerak. Ushbu maqolada, avvalo, koreys olimlarining oldingi maqolalarga asoslanib, “아/어 보다” grammatik shaklining ma‘nosi va vazifasini har tomonlama keng miqiyosda o‘rganilib, “아/어 보다” grammatik shaklining ma‘nosi va umumiy qo‘llanilishi umumlantiriladi. Demak, “아/어 보다” ning ma‘nosi va hozirgi holatini tahlil qilamiz. Koreys tili darsliklaridagi og‘zaki matnni tahlil qilib, grammatika tavsifida tavsiya etilgan “아/어 보다” ning qo‘llanilishi va matndagi realizatsiya jihatini solishtirgandan so‘ng, “아/어 보다” ko‘makchi fe‘li haqida umumiy to‘xtamga kelish mumkin. 아/어 보다 asosiy fe‘lga qo‘shiladigan yordamchi fe‘l bo‘lib, bir qator koreys tilshunos olimlari tomonidan 아/어 보다 ning ma‘nosi va nutqdagi vazifasiga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi.



Semantik jihatdan “아/어 보다” “urinish”, “sinov” (차현실, 1983: 우형식, 1986: 이기동, 1988: 장미선, 1994: 손세모돌, 1996: 박선옥, 1998: 호광수, 1999: 유혜령, 2010: 정연희, 2017), “tajriba” (우형식, 1986: 이기동, 1988: 장미선, 1994: 손세모돌, 1996: 호광수, 1999: 정연희, 2017) “tasavvur” (장미선, 1994: 손세모돌, 1996: 호광수, 1999 “tasdiqlash”, “qaror”, “hushmuomalalik” (장미선, 1994: 손세모돌, 1996) ma’nolarini yuzaga chiqarib shakl va sintaktik birikmaning ma’nosini ochib beradi. Yordamchi fe’l sifatida ishlatilganda “-아/ 어보다” harakat ma’nosida ishlatiladi hamda u faqat harakat fe’li bilan birikishi mumkin.

a) 이번 기회에 스타일을 한번 바꿔 보세요

a) Ushbu imkoniyatdan foydalanib, uslubingizni o'zgartirib ko'ring.

b) 집에 가서 읽어 볼게요

b) Men uyga borib, buni o'qib ko'raman.

d) 어디서 많이 들어 본 노래인데.

d) Qo'shiqni qayerdadir ko'p bora eshitgansiz?

e) 나도 아파 봐서 잘 알아.

e) Men buni yaxshi bilaman, chunki men ham kasal bo'lib ko'rganman.

(1.a), (1.b) -아/ 어 보다 “urinish”, “sinab ko'rish” degan ma’noni yuzaga chiqarayotgan bo’lsa-da, (1.a) dagi vaziyat o’z uslubini almashtirib ko’rishni sinab ko’rish, tajriba qilib ko’rish, ya’ni ilk bor amalga oshirilayotgan harakat bo’lsa, (1.b) holatida esa haqiqatda uyga borib aniq bajariladigan ish-harakatni ifodalab kelgan. “-아/ 어 보다” ko’makchi fe’li umumiy olganda “sinov”, “tajriba qilish” ma’nolarini yuzaga chiqaradi. Lekin 호광수 (1999) ning fikricha ushbu ko’makchi fe’l nafaqat “tajriba qilish” balki “haqiqatda amalga oshirish” ma’nosini ham yuzaga chiqaradi. “-아/ 어 보다” ma’nosini anglash ba’zan cheklangan. Biroq, agar u predikat turi yoki fe’lning semantik xususiyatlari bilan cheklanmagan bo’lsa uning ma’nosi kontekst bilan belgilanadi. 아/어 보다 ning ma’nosi gapning qaysi zamonda ifodalanayotganiga ko’ra ham bir muncha farqlidir. 손세모돌 (1996) ning fikricha 아/어 보다 “tajriba” ma’nosini yuzaga chiqarayotganda asosan o’tgan zamonda ishlatiladi. 조영보 (2020) ning tadqiqotida esa 아/어 보다 hozirgi va kelasi zamonda “sinov”, “urinib ko’rish”, o’tgan zamonda esa “tajriba” ma’nosini yuzaga chiqaradi. Shuningdek 손세모돌(1996) da buyruq va taklif mazmunidagi gaplarda ham “sinov”, “urinib ko’rish” ma’nosi ochib beradi.

a) 이번 방학에는 이것저것 많이 해 볼 거예요.

a) Shu kelayotgan ta’tilda u- bu ishlarni qilib ko’rmoqchiman.

b)이것저것 많이 해 보는데 아직 제 적성에 맞는 게 뭔지 모르겠어요.

b) U bu ishlarni ko’p qilib ko’rdim lekin o’zimga mos keladigan ish nimaligini haligacha topa olmadim.

d) 대학생 때 이것저것 많이 해 봤어요.

d) Talabalik paytimda u bu ishlarni juda ko’p qilib ko’rganman.

(2.a) dagi misolda sinov tariqasida biror ishni qilib ko’rishi nazarda tutilayotgan bo’lsa, (2.b) da esa ish harakat allaqchon tajriba qilib ko’rilganligiga guvoh bo’lamiz. (2.d) dagi holat esa o’tgan zamonda bir ish-harakatni ko’p marotaba bajarish ma’nosidan ko’ra shu harakatni boshidan kechirganligi, tajriba qilinganligini



ko‘ramiz. 아/어 보다 “tasavvur”, “faraz”, “istak” ma’nosini ham yuzaga chiqarib, gapning shakliy va sintaktik xususiyatini belgilaydi.

a) 돈만 많아 봐.인생이 확 달라질걸.

a) Faqat pul bo'lsa edi. Hayotim butunlay o'zgarib ketar edi.

b) 이게 커피여 봐.

b) Kofe bo'lsa edi.

(3.a) va (3.b) da berilgan misollarda 아/어 보다 sifat va ot so‘z turkumi bilan ifodalanib “tajriba” yoki “sinov” mazmunini emas, balki “pul bo‘lsa”, “kofe bo'lsa” kabi “faraz”, “istak” ma’nosini bildirayapti. 아/어 보다 jumlaning mazmunidan kelib chiqqan holda “hurmat” ma’nosini ham yuzaga chiqaradi.

a) 기다리지만 말고 먼저 연락해 보세요.

a*) 기다리지 말고 먼저 연락하세요.

b) 먼저 가 보겠습니다.

b*) 먼저 가겠습니다.

(4.a) misolida kutib o‘tirmasdan birinchi bo‘lib bog‘lanishi kerakligi suhbatdoshiga taklif mazmunida yetkazilib hurmat ifodasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. 호광수 (1999) ning fikricha (4.a*) ga solishtirganda (4.a) misolida ifodalangan gap suhbatdoshga ko‘proq hurmat ma’nosini yuklaydi. 차현실 (1983) da (4.a) ga o‘xshash buyruq gaplarda 아/ 어 보다 dan foydalansak, hurmat ma’nosi yanada kuchliroq ifodalanilib, yuqoridagi buyruq gapdan farqli o‘laroq so‘zlovchining “qaror”, “tasdiq” ini ifodalaydi. Bunday holatda buyruq gapda ifodalanadigan buyirish ohangi yumshab hurmat ma’nosi kuchayadi. Shuningdek, (4.b*) va (4.b) misollari ham birdek “hurmat” ma’nosida. Ammo bu misollar yuqoridagi (4.a) dan farqli nutq so‘zlovchisining “tasdiqlash” fikriga ega emas. Ya’ni (4.b)da so‘zlovchi suhbatdoshiga birinchi borish harakatini aytayotgan holda o‘zining “qaror” ini yuzaga chiqarayapti.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, 아/어 보다 ko‘makchi fe’li koreys tili ta’limida foydalaniladigan grammatik element sifatida ma’no ko‘lami keng bo‘lib, jiddiy o‘rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 국립국어원(2005), "외국인을 위한 한국어문법2- 용법 편", 커뮤니케이션북스.
2. 백봉자(2006), "한국어 문법 사전"
3. 서상규 외(2006), "외국인을 위한 한국어 학습 사전", 신원프라임.
4. 이희자·이종희(2006), "한국어 학습 학습자용 어미·조사 사전", 한국문화사.
5. 국립국어원(2005).
6. 이희자·이종희(2006), 앞의 책, p.354.